

**BOLA TA'LIM-TARBIYASIDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM
TASHKILOTI HAMKORLIGI**

**СОТРУДНИЧЕСТВО СЕМЬИ И ДОШКОЛЬНОЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ**

**COOPERATION OF FAMILY AND PRESCHOOL EDUCATION
ORGANIZATION IN CHILD EDUCATION**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola ta'lim-tarbiyasida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilada bolaning aqlan yetuk, jismonan sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: oila, aqlan yetuk, bilim, jismonan sog'lom, ko'nikma, malaka, tevarak-atrof, ijtimoiy burch.

Аннотация: В данной статье говорится о взаимодействии семьи и организации дошкольного образования в воспитании ребенка, организации дошкольного образования и формировании в семье психически зрелого, физически здорового, всесторонне развитого ребенка.

Ключевые слова: семья, интеллектуальная зрелость, знания, физическое здоровье, навыки, компетентность, окружающая среда, социальный долг.

Abstract: This article talks about the cooperation between the family and the preschool education organization in the education of the child, the development of a mentally mature, physically healthy, all-round child in preschool education organizations and the family.

Keywords: family, intellectual maturity, knowledge, physical health, skills, competence, environment, social responsibility.

Mirazimova Muxabbat Normatovna

JDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedراسи o'qituvchisi

Uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim, boshlang'ch va mas'uliyatli bosqichi bu maktabgacha ta'limdir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me'rosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi.

Aynan mana shu muhim vazifalarni e'tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning faol tashabbusi bilan Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29- dekabrda 2707-sonli Qarori, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 30-sentabrda PF-5198-sonli Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi" 2019 yil 8 mayda PQ-4312-son Qarorlarining qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o'rin egallamoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolaning aqlan yetuk, jismonan sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otib, bolalarni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bolalarni 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim tashkiloti yoki oilada maktab ta'limiga

tayyorlash, unga qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish, bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ota-ona oldida turgan asosiy maqsad va vazifalardan hisoblanadi.

Bola tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish juda ham muhim masalalardandir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun vaqti-vaqti bilan trening, munozara, test, so'rovnomalar o'tkazib turilsa, ayniqsa maktab yoshdagi 6–7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalar ishtirokida olib boriladigan har bir mashg'ulot farzandining nimaga qodir ekanini anglashiga yaqindan yordam beradi va bolalarni maktabga tayyorlashda oila a'zolarining mas'uliyati oshadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan har bir munozara bolalarni maktabning ilk bosqichiga yengil qadam qo'yishida hamda sog'lom bola va sog'lom muhit sharoitini mustahkam yaratishga imkon beradi. Treninglar maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisi, maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limga tayyorlash asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma'nan rivojlantirishı.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bolani maktab ta'limiga tayyorlashda MTT, oila hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim tarbiya sifati va samaradorligiga erishish va oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda 2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrda PF-5198-son «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 mayda PQ-4312-son O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi.
4. D.Q.Asqarova-Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma.T., "Navro'z"-2020, 139 bet.

1. D.Q.Asqarova-Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma.T., "Navro'z"-2020, 139 bet.